

7-sinf Texnologiya fanidan
Servis xizmati yoʻnalishi (haftasiga 2 soat, jami 68 soat) uchun
II chorak ChSB-2 (40 ball)

Topshiriq. Amaliy mashgʻulot. Mashinada izma (petlya) tikish.

№	Baholanadigan koʻnikma	Berilgan topshiriq
1	Amaliy ishni bajarishda mehnat intizomiga va xavfsizlik texnikasi qoidalariga, sanitariya gigiyena talablariga toʻliq amal qila oladi.	Amaliy mashgʻulot. Mashinada izma (petlya) tikish. II bob 14-§ 134- sahifa
2	Amaliy ishni mustaqil ketma-ketlikda bajara oladi.	
3	Amaliy ish jarayonini tahlil qiladi va izoh bera oladi.	

Baholash mezonlari

№	Ball	Deskriptorlar
1	5	Amaliy ishni bajarishda mehnat intizomiga va xavfsizlik texnikasi qoidalariga, sanitariya gigiyena talablariga toʻliq rioya qilsa - 5 ball
2	30	- Amaliy mashgʻulot uchun kerak boʻladigan asbob-uskuna va materiallarni toʻgʻri tanlasa - 5 ball - Izma chiziqlari belgilangan, oʻlchamga mos va tartibli joylashtirilgan, mashina izma rejimiga mos ravishda toʻgʻri sozlangan, ignaga ip toʻgʻri tanlangan, tikuv chizigʻi mustahkam va izma tikilgandan soʻng maxsus vositalar yordamida ochilgan hamda keraksiz iplardan tozalangan boʻlsa, – 20 ball - Tikuv mashinasini mustaqil ravishda mashgʻulotga tayyorlay olsa– 5 ball
3	5	Mashinada izma (petlya) tikish turlari haqida tushunchaga ega boʻlsa, bajargan ishini izohlab bera olsa- 5 ball
Jami: 40		

Izoh: CHSB materiallarini chop etish shart emas. Oʻquv yili davomida oʻquvchilar dasturda koʻzda tutilgan barcha CHSB topshiriqlari amaliy bajariladi.